

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI TIZIMIDA BILIMLAR IQTISODIYOTINI "GAMIFIKATSIYALASH"NING USLUBIY ASOSLARI

Aslonova Rushano Ilxomovna

Nishon tumani maktabgacha va maktab ta'limi
bo'limiga qarashli 22-DMTT direktori
rushanaarslanova9gmail.com
ORCID: 0009-0000-6113-4203

Annotatsiya

Maqolada bilimlar iqtisodiyotining zamonaviy shakllarini jamiyatdagi bilim darajasini oshirish va manfaatdor tomonlar o'rtasida real ta'limni rivojlantirish orqali jamiyatda yangi texnologiyalarni yaratish va foydalanish qobiliyatiga ega avlod yetishtirish masalalari tahlil qilinadi. Muhokama qilingan asosiy imkoniyatlar qatoriga eksperiment rejasini ishlab chiqishga tayyorgarlik ko'rish, uni ishlab chiqish, tajribani amalga oshirish, tadqiqot obyektiga mos xossalarni guruhlash va empirik umumlashmalar kiradi. Maqola akademik almashinuv va global ta'lim platformalariga integratsiya qilish orqali bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlarni taklif etadi.

Kalit so'zlar: xizmatlar tarmog'i, masofaviy ta'lim, interaktiv ta'lim platformalari, innovatsion rivojlanish, maktabgacha ta'lim, gamifikatsiyalash, bilimlar iqtisodiyoti.

Аннотация

В статье анализируются современные формы экономики знаний с целью воспитания поколения, способного создавать и использовать новые технологии в обществе, путем повышения уровня знаний в обществе и развития реального образования среди заинтересованных сторон. Ключевые обсуждаемые возможности включают подготовку и разработку плана эксперимента, проведение эксперимента, сбор соответствующих характеристик предмета исследования и эмпирические обобщения. В статье представлены новые возможности академического обмена и интеграции в глобальные образовательные платформы для развития экономики знаний.

Ключевые слова: сетевые услуги, дистанционное образование, интерактивные образовательные платформы, инновационное развитие, дошкольное образование, игра, экономика знаний.

Abstract

The article analyzes modern forms of knowledge economy to raise a generation capable of creating and using new technologies in society by raising the level of knowledge in society and developing real education among stakeholders. The main possibilities discussed include preparation for experiment design, development, experiment implementation, collection of relevant characteristics of the study topic,

and experimental generalizations. The article presents new opportunities for academic exchange and integration into global educational platforms to develop the knowledge economy.

Key words: service network, distance education, interactive educational platforms, innovative development, pre-school education, play, knowledge economy.

KIRISH

Dunyo bo'ylab ta'lim jarayonlari raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirilmoqda. Interaktiv ta'lim platformalari, masofaviy ta'lim va onlayn resurslardan foydalanish jarayonlarida maktabgacha ta'lim tizimida bilimlar iqtisodiyotini gamifikatsiyalash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Yangi O'zbekiston iqtisodiyotida muvaffaqiyatga erishish uchun bolalarda kreativlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va IT ko'nikmalarini shakllantirish zarur. Global integratsiyaga asoslangan bilimlar iqtisodiyotining rivojlanishi xalqaro ta'lim standartlarini tatbiq qilish va o'quvchilarni global bilim iqtisodiyotiga tayyorlashni talab qiladi.

Shu o'rinda, yosh avlodni tayyorlashda ta'limning bilimlar iqtisodiyotiga moslashuvchanligi va samaradorligini oshirish zarurati mavjud. Shu sababdan, bilimlar iqtisodiyotining zamonaviy shakllari maktabgacha va maktab ta'limi tizimida muhim hisoblanadi.

Bilimlar iqtisodiyoti – bu ilmiy bilimlar, innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan iqtisodiy modeldir. Bugungi global raqobat sharoitida maktabgacha va maktab ta'limi tizimi ushbu iqtisodiyotning asosiy poydevorini shakllantiradi. Bilimlar iqtisodiyotining ta'lim tizimidagi zamonaviy shakllari raqamli texnologiyalarni, yangi pedagogik yondashuvlarni va zamonaviy boshqaruv usullarini tatbiq etishni o'z ichiga oladi.

Har bir bola uchun individual ta'lim dasturini ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Maqolada bolani erta yoshdan rivojlantirish va maktabgacha ta'limning bolalarda intellektual va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishdagi muhim bosqich ekanligi qayd etiladi. Bilimlar iqtisodiyotining zamonaviy shakllari bu jarayonni individual yondashuv va innovatsion pedagogika orqali qo'llab-quvvatlaydi.

Bu o'rinda malakali kadrlar tayyorlash va bilimlar iqtisodiyotiga mos kadrlar yetishtirish uchun ta'lim tizimida uzluksizlikni ta'minlash, ya'ni maktabgacha, maktab va undan keyingi ta'limni integratsiyalash zarurdir.

Bilimlar iqtisodiyotining zamonaviy shakllaridan biri, o'yin asosidagi ta'lim – gamifikatsiya texnologiyalari orqali bolalarda bilim olishga qiziqish uyg'otishdir. Bu usul ta'lim jarayoniga innovatsion va samarali yondashuvlarni tatbiq etishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu sababli, maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirishga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumati tomonidan doimiy e'tibor berilib kelinmoqda [1].

Maktabgacha ta'lim tizimi ilmiy bilimlar va ilmiy faoliyat tizimi sifatida tadqiqot natijalarida nazariy va amaliy turdagi yangi ilmiy bilimlarni shakllantirishni ko'zda tutadi. Bu yo'nalish maktabgacha va maktab ta'limi tizimida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga qaratilgan turli ta'rif va yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotchilar ilmiy ishlarida ushbu masalalarga oid manbalar va qo'llanmalar asosida ishlaydi [2].

Maktabgacha va maktab ta'limi tizimi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ilmiy bilimlar, innovatsiyalar va yuqori malakali kadrlar iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylangan iqtisodiy modellashtirish va prognozlash usullari tadqiqotlarda keng o'rganilgan. Ko'p omilli empirik modellarni tasniflash masalalari olimlarning ilmiy izlanishlarida muhim o'rin egallab kelmoqda [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim bilan maktab ta'limini integratsiyalash, zamonaviy texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt va raqamli ta'lim platformalarini tatbiq qilish orqali maktabgacha ta'lim jarayonining sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Maktabgacha ta'limda ongni shakllantirish va barqaror rivojlanish g'oyalarini tarbiyalash orqali ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va barqarorlikni rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz:

- Maktabgacha ta'lim dasturlarini raqamli texnologiyalar bilan boyitish.
- Tarbiyachilar malakasini oshirish uchun innovatsion trening va kurslarni yo'lga qo'yish.
- Maktabgacha ta'limda kreativlikni rivojlantiruvchi o'yin va mashg'ulotlardan keng foydalanish.
- Xalqaro standartlar asosida ta'lim sifatini oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish.

Ushbu yondashuv maktabgacha va maktab ta'limini zamonaviy iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish bilan birga, jamiyatning bilimli va malakali avlodni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bilimlar iqtisodiyoti ta'lim jarayonida bir qancha darajalarda amalga oshiriladi. Bu darajalar ta'lim tizimining turli bosqichlarida bilimlarni yaratish, ulashish va qo'llash imkoniyatlariga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim bilimlar iqtisodiyotining poydevorini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqichda bola ijtimoiy, intellektual va emotsional rivojlanishiga qaratilgan dasturlar bilan tanishtiriladi.

Buning asosiy yo'nalishlari quyidagilar:

-kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish uchun bolalarda o'ylash, xotira, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish;

-innovatsion pedagogikada Montessori, Reggio Emilia va Waldorf kabi innovatsion yondashuvlarni qo'llash;

-o'yin asosida o'qitishda gamifikatsiya va interaktiv vositalar orqali ta'lim jarayoniga qiziqish uyg'otish;

-raqamli ko'nikmalar hosil qilishda bolalarni dastlabki texnologiyalar bilan tanishtirish.

Bu darajada shakllangan ko'nikmalar kelajakda murakkab bilimlarni o'zlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Boshlang'ich maktab ta'limi darajasida asosiy ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim bilimlar iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan bazaviy bilimlar va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan.

Bilimlar iqtisodiyoti maktabgacha va maktab ta'limi tizimida standartlar va qoidalarga rioya qilish orqali sifatli, zamonaviy va uzluksiz ta'lim jarayonini tashkil etishni talab qiladi. Bu qoidalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarni kelajakda raqobatbardosh qilish va zamonaviy bilimlar iqtisodiyotiga mos shaxslarni tayyorlashni ta'minlaydi. Ta'lim jarayonidagi standartlar va qoidalar — bu ta'limning sifatini belgilaydigan va uning amalga oshirilishini me'yorlashtiradigan huquqiy, pedagogik va metodologik ko'rsatmalardir.

Ular quyidagi darajalarni qamrab oladi:

Ta'lim metodologiyasi va pedagogik qoidalar: Innovatsion yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni rag'batlantiradi.

Maktabgacha ta'lim bolalarda boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirish uchun asos yaratadi. Ushbu jarayonda quyidagi standart va qoidalarga rioya qilinadi:

Bu standartlar:

Erta rivojlanish uchun DTS: Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy, ijtimoiy, emotsional va intellektual rivojlanish mezonlarini belgilaydi.

Xavfsizlik me'yori: Bolalarning xavfsizligi uchun ta'lim muassasalarining gigiyena va sanitariya qoidalariga rioya qilish.

Innovatsion o'yin va o'qitish vositalari: Didaktik materiallar va o'yinlar bolalarda qiziqish va kognitiv ko'nikmalarni rivojlantirishi kerak.

Bu standart va qoidalarga rioya qilish uchun:

Mashg'ulotlarni bolalarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish, shaxsiylashtirilgan yondashuv: har bir bolaning rivojlanish sur'atini inobatga olish, oilaviy hamkorlik va bolaning ta'lim jarayoniga ota-onani faol jalb qilish lozim.

O'quvchilar bilimini baholashning shaffofligi va adolatligini ta'minlash, innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash (masalan, STEAM-ta'lim, gamifikatsiya), infratuzilmaning zamonaviy me'yorga mos bo'lishi (masalan, laboratoriyalar va multimedia xonalari) va o'quvchilarning ruhiy salomatligi va ijtimoiy moslashuvini qo'llab-quvvatlash lozim.

Bu esa ta'lim jarayonining me'yorlashtirilishi o'quvchilarni bilimlar iqtisodiyotiga tayyorlash sifatini oshiradi. Ta'lim jarayoni xalqaro standartlarga muvofiq kelajakda global mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga

yordam beradi. Ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Bilimlar iqtisodiyotiga mos barqaror ta'lim tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tavsiya: Bilimlar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun ta'lim standartlarini doimiy o'zlashtirish, pedagoglarni zamonaviy standartlar va qoidalarga muvofiq tayyorlash, ta'lim sifatini nazorat qilish tizimiga rioya qilish va maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash. Ushbu qoidalarga rioya qilish orqali ta'lim jarayonining samaradorligi oshirilib, bilimlar iqtisodiyoti talablariga mos kadrlarni tayyorlash imkoniyati yaratiladi (1-rasm).



1-rasm. Bilimlar iqtisodiyoti talablariga mos kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayon darajasi¹

Rasmda ta'lim jarayonini boshqarish darajasi, uning standartlarga muvofiqligi va xatolarni kamaytirishga qaratilgan tamoyillar yoritilgan. Bu elementlarni ta'lim jarayonlarini modellashtirishga bog'liqligi, har bir jarayon uchun o'rnatilgan standartlar va ko'rsatmalarning mavjudligi, maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili, ta'lim jarayonlarini boshqarish va modellashtirish uchun belgilangan standart va ko'rsatmalar muhim ahamiyatga ega. Modellashtirishni amalga oshirish uchun o'quv dasturlari, baholash mezonlari va darsliklarning milliy va xalqaro standartlarga mos ravishda ishlab chiqilishi kerak. O'quvchilarning rivojlanish bosqichlariga mos keladigan jarayonlarni rejalashtirish natijasida ta'lim jarayonining aniqligi va izchilligi ta'minlanadi. Standartlar o'quv jarayonida yagona tizimni yaratishga yordam beradi.

¹ Muallif ishlanmasi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur iqtisodiy ta'lim darajasini 6-7 yoshdagi bolalarda aniqlash uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: intervyular, shaxsiy suhbatlar, kuzatish. Ularga "Odamlarga pul nima uchun kerak?", "Reklama nima uchun qilinadi?", "Nega kitob, o'yinchoq, buyumlar, tabiatni muhofaza qilishimiz kerak?", "Do'konga borsang oilaga nimalarni sotib olish kerak?" kabi savollar bilan murojaat qilish orqali bolaning iqtisodiy tafakkurini aniqlash mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, bolaning kelajak hayotdagi faolligi, uning farovon va to'kin yashashi haqidagi tasavvurlari, bilim, malaka va ko'nikmalari kichik yoshdan shakllantirilib borilishi lozim. Ko'rsatkichi past darajadagi bolalar bilan individual ishlash, ularni kelajak hayotga tayyorlash maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida 08.05.2019 yildagi PQ-4312-son¹.

2. N.M. O'rinoва, I.I. Tuychiyeva, B.X. Baydjanov. (2023). **Umumiy pedagogika (pedagogika nazariyasi)** o'quv qo'llanma.

3. Лутфуллаева Д., Давлатова Р., Тожибоев Б. **Ассоциативный словарь узбекского языка**. Ташкент: «NAVOIY UNIVERSITETI», 2019.

¹ <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>